UO‘K 141.7:316.344.233:364.662(045)

# KAMBAG‘ALLIKNING KELIB CHIQISHI, SHAKLLARI VA TURLARI

**Z.E. Suyarov**

*Maqolada kambag‘allik tushunchasi va fenomeni, kambag‘allikning kelib chiqish sabablari va turlari tahlil qilingan. Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv sabablar ochib berilgan. Kambag‘allikning ijtimoiy xususiyatlari, kambag‘allikni aniqlash metodlari yangicha yondashuv asosida tadqiq etilgan. Shuningdek, kambag‘allikning qashshoqlikdan farqli jihatlari yoritib berilgan. O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish chora-tadbirlari va ulardan kutilayotgan natijalar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar***: kambag‘allik, qashshoqlik, farovonlik, ijtimoiy islohotlar, kambag‘allik darajasi, ijtimoiy davlat, taraqqiyot strategiyasi, Jahon banki, ijtimoiy himoya*.

*В статье анализируются понятие и явление бедности, причины и виды бедности. Выявлены объективные и субъективные причины бедности. На основе нового подхода изучены социальные характеристики бедности, методы определения бедности. Также выделяются аспекты отличия бедности от нищеты. Анализируются меры по сокращению бедности в Узбекистане и их ожидаемые результаты.*

**Ключовые слова***: бедность, нищета, благосостояние, уровень бедности, социальные реформы, социальное государство, стратегия развития, Всемирный банк, социальная защита.*

## KIRISH

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar markazida, eng avvalo, inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlashga harakat qilinmoqda. “Islohotlardan ko‘zlangan maqsad esa mamlakatimizda aholi farovonligini yuksaltirish va ijtimoiy adolat prinsiplari orqali jamiyatdagi har bir inson uchun munosib turmush sharoitini yaratib berishdir [3]. Aholi turmush tarzini yuksaltirish mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish orqali amalga oshishi sir emas. Shu sababli mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish va aholi farovonligini yuksaltirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz 2020-yil 27-fevral kuni Vazirlar Mahkamasining kambag‘allikni kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi videoselektor yig‘ilishida “kambag‘allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilmoqda, bu hududlarda aholining katta qismi kunlik daromadi juda ham past darajada” [4] deb ta’kidlab o‘tgandi. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar natijasi va samaradorligi kambag‘allik hodisasini va jamiyatdagi darajasini to‘g‘ri anglash, unga to‘g‘ri yondashuviga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli kambag‘allikni va uning kelib chiqish sabablarini ilmiy tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, kambag‘allik ijtimoiy hodisa sifatida doim jamiyatdagi ziddiyatlarning manbasi bo‘lib kelgan. Kambag‘allik fenomeni va uning yuzaga kelish sabablari ko‘plab olimlar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan, M.Veber, T.Maltus kambag‘allik fenomenini ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ko‘rsatishgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kambag‘allik hodisasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida bartaraf etilishi zarur bo‘lgan noxush holat va voqelikdir.

## MATERIAL VA USULLAR

Kambag‘allik fenomenini o‘rganish jarayonida uning asosan ikki xil o‘lchovi borligiga e’tibor berish mumkin.

1. Mutlaq kambag‘allik – bu o‘lchovga ko‘ra daromad oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana kabi asosiy shaxsiy ehtiyojlarni qondirish

uchun zarur bo‘lgan miqdordagi mablag‘ga nisbatan solishtiriladi.

2. Nisbiy kambag‘allik – bu ayni paytda bir xil vaqt va joyda boshqalarga nisbatan turmush darajasidagi farqni ko‘rsatadi, unga ko‘ra kambag‘allik holati va darajasi turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, bir-biridan nisbatan farq qilishi yoki turli jamiyatlarda turli ko‘rinish va shakllarda farqlanib, o‘ziga xos tarzda mavjud bo‘lishi mumkin.

Aslida kambag‘allik tushunchasiga nisbatan yagona yondashuv va ta’rif mavjud emas. Bunga sabab kambag‘allik fenomenini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy holatlar tabiati murakkabligi hamda turli obyektiv va subyektiv sabablar bilan bog‘liq ekanligidadir. Ko‘plab tadqiqotlarda kambag‘allik va qashshoqlik bir xil ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rsatiladi, aslida mohiyat jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, lekin ularni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy sabablar turlicha va xilma-xildir. Kambag‘allik asosan iqtisodiy holatlar hamda davlat va jamiyat munosabatlaridagi nomutanosib aloqalar oqibati bo‘lsa, qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi sabablar keng ko‘lamli va turlicha ekanligini ta’kidlash zarur. Respublikamizda kambag‘allikni kamaytirish maqsadlari haqida prezidentimiz so‘z yuritar ekan: “Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jadal davom ettirilmoqda. Biz birinchi marta kambag‘allikni kamaytirish haqidagi qat’iy qarorimizni ochiq e’lon qildik. Bunga tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, investitsiya va biznes muhitini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmani barpo etish, odamlarni yangi kasb-hunarlarga o‘rgatish va aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali erishmoqdamiz” [7] deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Tadqiqotda xolislik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, mantiqiylik, sinergetika kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvar kungi Parlamentga yo‘llagan murojaatida “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish demakdir” [1] deb ta’kidlab o‘tgandi. Darhaqiqat, kambag‘allikni kamaytirish chora-tadbirlari samaradorligi bu aholida tadbirkorlik va ishbilarmonlik ruhini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Kambag‘allik muammosi bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda Kambag‘allikni kamaytirish dasturi doirasida institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2021-yil 3-dekabrdagi “PQ-31-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [9] qaror va “Iqtisodiy taraqqiyot, kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [12] Vazirlar Mahkamasining qarorlari e’lon qilindi. Ushbu tuzilmalar doirasida aholi bandligini ta’minlash orqali mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish strategiyasi belgilab olindi.

Kambag‘allik tushunchasiga xalqaro tashkilotlar tomonidan bir qator ta’riflar berilganiga qaramay, ushbu ijtimoiy hodisaga yagona yondashuv mavjud emas. Ularning ichida BMT tomonidan taklif etilgan ta’rif keng qamrovli bo‘lib, unga ko‘ra, kambag‘allik deganda insonning asosiy ehtiyojlarini, asosiy iste’mol mahsulotlari, ichimlik suvi, tibbiyot inshootlari, sog‘liqni saqlash, boshpana, bilim olish bilan bog‘liq birlamchi zaruratlarini qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi tushuniladi. O‘zbekistondagi kambag‘allik darajasi haqida fikr yuritar ekan, Sh.Mirziyoyev: “Biz boshlagan islohotlar yo‘limizni izchil davom ettirish maqsadida Yangi O‘zbekiston strategiyasini ishlab chiqdik. Ushbu Strategiyaning bosh g‘oyasi fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish, inson huquqlarini himoya qilish, kambag‘allikni kamaytirish, har bir kishini kafolatli daromad manbai bilan ta’minlash hamda barqaror ekologik rivojlanishga erishishdan iboratdir” [8] deb ta’kidlab o‘tgan. Davlatimiz rahbarining fikriga ko‘ra 2030-yilgacha aholi jon boshiga nisbatan daromadlarni ko‘paytirib borish va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan joy olish maqsad qilingan. Ya’ni kambag‘allik nafaqat daromad yoki iste’mol, balki insonning ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, moddiy ahvoli, sog‘ligi va o‘z hayot tarzidan

mamnun emasligi bilan ham ifodalaniladi. Kambag‘allik kunlik iste’mol uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, shuningdek, kiyim-kechak va turar joy, ya’ni boshpana topish kabi muhim ehtiyojlarni qondirish uchun pulning yetarli emasligi deb tushunilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, kambag‘allik pulning yetishmasligidan ham ko‘ra ko‘proq muammoni anglatishi mumkin. Kambag‘allik odamlarning o‘zlari yashayotgan ijtimoiy sharoitda tanlash imkoniyatining yo‘qligi, jamiyat hayotida faol qatnashish uchun cheklashlarning mavjudligi, oilasini boqish va o‘qitish, shuningdek, sog‘lig‘ini tiklash uchun mablag‘ining yo‘qligi, daromad topish uchun imkon beradigan ish joyi bilan ta’minlanmaganligida namoyon bo‘ladi. Shu jumladan, kambag‘allik odamlar va uy xo‘jaliklari, shuningdek, jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, iqtisodiy jihatdan chorasizligi hamda nochorligini anglatadi. Kambag‘allik fenomenini ilmiy jihatdan o‘rganish o‘tgan asrning 50–60-yillaridan boshlab sotsiologiya va ijtimoiy falsafada dolzarb masalaga aylandi. Kambag‘allik sabablarini tushuntirishda uchta umumiy yondashuv shakllangan.

1. Kambag‘allik uchun faqat kambag‘al insonning o‘zi aybdor .

2. Jamiyatda kambag‘allikning mavjudligiga va saqlanib qolishi uchun mavjud siyosiy tuzum va uning iqtisodiy-ijtimoiy siyosati aybdor.

3. Jamiyatdagi cheklangan resurslar va unga egalik qilishdagi notenglik.

Qashshoqlik tushunchasiga quyidagi ta’rifni berish uning ijtimoiy mohiyatini ochib beradi. Qashshoqlik ochlik, to‘yib ovqatlanmaslik, boshpana yetishmasligi, kasallik va antisanitar sharoitlarda yashash, tibbiy xizmatning yo‘qligi yoki yetarli emasligini bildiradi. Qashshoqlik bolalarning maktabga bora olmasligi va savodsizligini anglatadi. Qashshoqlik kamsitish va segregatsiya, kelajak uchun qo‘rquv, bir vaqtning o‘zida bir kun bo‘lsa ham farovon va xavfsiz yashash ilinjidir. Qashshoqlik sodir bo‘layotgan tabiiy-texnogen ofatlar ko‘lami, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy inqirozlar davomiyligi hamda harbiy mojarolar vaqtida sodir bo‘ladigan vayronagarchiliklar ortidan kelib chiqadigan oqibatlar bilan bevosita bog‘liq. Qashshoqlikning ko‘plab xususiyatlari bor, joydan joyga siljishi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turishi, shuningdek, tez-tez sodir bo‘layotgan tabiiy, texnogen hodisalar, hosilsizlik, qurg‘oqchilik, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy inqirozlar hamda harbiy mojarolar oqibatida majburiy migratsiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, jamiyatdagi turli qatlamlarni o‘z domiga tortishi mumkin. Qashshoqlik insonlar duch kelishni xohlamaydigan salbiy va og‘ir ijtimoiy vaziyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, qashshoqlik jamiyatdagi barcha qatlam vakillari – kambag‘allar, o‘rtahollar va boylar uchun ham dunyoni o‘zgartirishga chaqiriqdir.

Kambag‘allik insoniyatga xos fenomen bo‘lib, bu hodisa deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida turli daraja va ko‘lamda mavjud. Xususan, O‘zbekistonda ham aholining ma’lum bir qismi kambag‘allik darajasida hayot kechiradi. Kambag‘allik muammosi uzoq vaqt davomida mamlakatimizda yopiq mavzu bo‘lib keldi va ushbu hodisa bilan bog‘liq ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratilmadi. Prezident Sh.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kungi Oliy Majlisga murojaatida “Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emas. Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi bizda ham kam ta’minlangan aholi qatlami mavjud, ular taxminan 12–15 foizni tashkil etadi. Bu o‘rinda gap kichkina raqamlarda emas, balki aholimizning 4–5 millionlik vakillari haqida bormoqda” [1] deb ta’kidlab o‘tgandi. Davlatimiz rahbari mamlakatimiz yangi tarixida birinchi bor O‘zbekistonda kambag‘allik muammosi borligiga e’tiborni qaratdi.

Mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish borasida qisqa va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategik ahamiyatga ega chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturida kambag‘allikni kamaytirish chora-tadbirlari doirasida “tuman (shahar) bandlik va tadbirkorlikka ko‘maklashish markazlari faoliyatini isloh qilish, ya’ni ularni “xizmat ko‘rsatishdan” “muammoni yechish” modeliga bosqichma-bosqich o‘tkazish choralari belgilandi” [5]. “Mahallalarda mahalla raislari, hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari tomonidan o‘tkazilgan xatlov natijalari “yagona elektron platforma”ga jamlanadi hamda kambag‘allikdan chiqarish, bandlikka ko‘maklashish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha aholining muammolari hal etiladigan muddatga qadar “individual dastur” ishlab chiqish va amalga oshirish” [5] belgilandi. Davlat boshqaruvi tarkibidagi idora va tashkilotlarning elektron axborot resurslaridagi

ma’lumotlar asosida “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash bo‘yicha raqamli ekotizim” [5] shakllantirish tadbirlari belgilandi. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, asosan, aholini kambag‘allik holatidan qashshoqlik darajasiga o‘tish ehtimolini to‘liq bartaraf etishga qaratilgan. Kambag‘allikda yashovchi aholi qatlamining doimiy daromad manbaini yaratishga, inson kapitalini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratish uchun dunyoda keng qo‘llanilayotgan asosan uchta vositadan foydalanilmoqda.

Birinchi vosita: kambag‘al aholi uchun doimiy daromad manbaini yaratish chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etish ishlari olib borilmoqda. Bunda kambag‘al aholi qatlami, asosan, qishloqlarda yashashi inobatga olingan holda, joylarda mahalliy shart-sharoitni hisobga olib, aholiga doimiy daromad topish manbalarini yaratishga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.

Bunda:

1) “Oilaviy tadbirkorlik” dasturlarining qamrov darajasi oshirilmoqda;

2) aholi tomorqalarini rivojlantirishga, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va boshqa sohalarda kooperativlarga jalb qilinadigan shaxslarning a’zolik badaliga, mehnat organlari yo‘llanmasi bilan ishga oladigan ish beruvchilarga subsidiyalar ajratilmoqda.

Ikkinchi vosita – inson kapitali sifatini oshirib borish.

Kambag‘al aholini qo‘llab-quvvatlashning dastlabki bosqichida, asosan, imtiyozli kredit va bevosita moddiy yordam ko‘rsatish mexanizmiga urg‘u berilgan. Ya’ni kambag‘al aholining ongida ishbilarmonlik tafakkurini yuzaga keltirish, turli kasb-hunarlarga o‘rgatish keyingi bosqichdagi ishlarning muhim yo‘nalishi sifatida belgilab olingan. Unda quyidagilarga alohida e’tibor berilgan:

1) kasb-hunarga o‘rgatish uchun monomarkazlarni tashkil etish, ustoz-shogird an’analarini tiklash va kengayishini rag‘batlantirish;

2) nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda xususiy sektor yordamida aholini, ayniqsa, yoshlarni kasb-hunar o‘rganishga keng jalb qilish.

Uchinchi vosita kambag‘al oilalarga bevosita moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatilishini kengaytirib borishdan iborat. Aholining muhtoj qatlamini moddiy va nomoddiy qo‘llab-quvvatlashni tizimli amalga oshirish maqsadida joylardagi 4 ta sektor, mahalla organlari, jamoatchilik vakillari hamda mahalliy kengash deputatlari bilan birgalikda ehtiyojmand, moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalar va fuqarolar ro‘yxatini aks ettiruvchi “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” tashkil etildi.

Mazkur tizimning shaffofligini ta’minlash uchun, aholining ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘irlashgan qatlamlarini hisobga olishga qaratilgan saxovat va ko‘mak xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. Kambag‘al oilalarning ishsiz a’zolarini band etishga yordam beruvchi va ularga daromad manbai yaratishning “Vaqtinchalik tartibi” tasdiqlangan. Mamlakatimizda Kambag‘allikni kamaytirish dasturi doirasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021–2022-yillar davomida kam ta’minlangan aholining “Temir daftar”ga kiritilgan olti yuz mingga yaqin oilaning 2,5 million a’zosidan yetti yuz mingga yaqini “vaqtinchalik tartib” asosida bandligi ta’minlangan. Shu bilan birga, bandligi ta’minlanib, daromad manbai yaratilgan 386,4 mingta oila 2022-yil oxirida “Temir daftar”dan chiqarilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda Xitoy Xalq Respublikasining ilg‘or tajribasini inobatga olgan holda, Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar ekspertlari hamda mahalliy mutaxassislar bilan hamkorlikda yaqin va o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan Kambag‘allikni kamaytirish dasturi va konsepsiyasi ishlab chiqildi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bugungi kunda dunyo miqyosida kambag‘allik va qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Kambag‘allik darajasini har bir mamlakat o‘zi uchun belgilagan mezondan kelib chiqib tavsiflaydi. O‘zbekistonda kambag‘allik muammosini o‘rganish uchun o‘ziga xos yondashuv zarur bo‘lib, prezidentimiz “Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag‘allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqish va bu borada xalqaro me’yorlar asosida chuqur o‘rganishlar olib borib, kambag‘allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiya yaratish lozim” [1] deb ta’kidlab o‘tgandi.

Shu jumladan, kambag‘allik nisbiy tushunchadir va nisbiy mazmunga ega. Barcha mamlakatlarda aholining ma’lum qismi boshqasiga nisbatan kambag‘allik holatida bo‘ladi, kam-

bag‘allik chegarasini esa yashash minimumi yoki boshqa metodlar orqali aniqlash va belgilash mumkin. Yashash minimumi har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik va farovonlik darajasiga bog‘liq. Prezidentimiz “Ba’zi odamlar ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam puli to‘lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin deb o‘ylaydi. Bu bir tomonlama yondashuv bo‘lib, muammoni to‘la yechish imkonini bermaydi” deb ta’kidlab o‘tgandi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bir joyda boy yoki o‘rtahol yashagan inson boshqa yerda kambag‘allik muammosiga duch kelishi mumkin, ya’ni kambag‘allik turli ijtimoiy makonda o‘zgarib turadi. Bunday o‘zgarish ma’lum bir hududdagi yashash qiymati bilan izohlanadi. Deylik, bir inson ma’lum bir mamlakatda oyiga 500 dollar daromad topsa, xuddi shu inson boshqa mamlakatda yoki hududda topgan aynan o‘sha daromadi bilan ham kambag‘allik holatiga tushib qolishi mumkin. Mamlakatlardagi kambag‘allik darajasini kambag‘al qatlamning aholi umumiy tarkibidagi salmog‘i belgilaydi. Mamlakatdagi kambag‘allik darajasini aniqlash uchun birinchi navbatda kambag‘al yashaydigan aholi qatlamining umumiy aholi tarkibidagi ulushini bilish lozim bo‘ladi. Kambag‘allik darajasi iqtisodiyotning umumiy darajasiga nisbatan teskari mutanosiblikda bo‘ladi.

Kambag‘allikni kamaytirish jarayonida jamiyatda ijtimoiy farovonlik darajasi yuksalib boradi.

Kambag‘allikni kamaytirish avvalo jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning turli ko‘rinishlarini bartaraf etishni ham o‘z ichiga oladi. Kambag‘allikni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan turli dasturlar insonning asosiy ehtiyojlarini ko‘proq ta’minlab beradimi yoki ehtiyojlarni qondirishga sotib olish uchun zarur bo‘lgan umumiy daromadni oshiradimi, degan mulohazaga asoslanib turli toifalarga bo‘linadi. Masalan, sifatli yo‘llar qurish kabi ba’zi dasturlar shaharlardagi turli ijtimoiy obyektlarga yoki sog‘liqni saqlash kabi turli xil asosiy ehtiyojlarga tezroq, osonroq yetib borishni ta’minlaydi, shuningdek, shahar bozorlariga arzon kirishni ta’minlash orqali daromadlarni oshirish imkonini beradi. Shu bulan birga, kambag‘al qatlamga qo‘lidagi cheklangan mablag‘ni tejash orqali ushbu resurslarni eng zarur ehtiyojlarga yo‘naltirish imkonini beradi. Oila a’zolari soni va oiladagi daromadning jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdorini aniqlash kambag‘allik darajasi va holatini tushunish imkonini beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish va aholi daromadlarini oshirish sohasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda kambag‘al aholini aniqlash uchun dastlab “Temir daftar”, keyinchalik “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” joriy etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad kambag‘al va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini aniqlash orqali ularni qiynayotgan muammolarni samarali bartaraf etishdan iborat.

2022-yildan boshlab “Yagona ijtimoiy reestr” shakllantirilib, temir daftardagi barcha ma’lumotlar qamrab olindi va ehtiyojmand oilalarga o‘ttizdan ortiq ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko‘rsatila boshlandi.

Kambag‘al aholi qatlamining muhim ehtiyojlarini ishonchli ta’minlash Kambag‘allikni kamaytirish dasturidagi tadbirlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonda 2022-yil mart oyidan boshlab minimal iste’mol xarajatlari miqdori ishlab chiqildi va mavjud vaziyatdan kelib chiqib ushbu miqdor o‘zgartirib borilmoqda. Shuningdek, minimal iste’mol xarajatlari kambag‘allik darajasini belgilash uchun asos sifatida olindi. Kambag‘allik darajasini aniqlashdagi bunday yondashuvdan jahondagi ko‘plab mamlakatlar foydalanadi.

Global pandemiya davrida aholining kambag‘al qatlamini samarali qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Temir daftar”ga ro‘yxatga olingan fuqarolarni kambag‘allikdan chiqib ketishi uchun ularga “amaliy ko‘nikma va moliyaviy yordam” ko‘rsatish asosida yangi uslub hayotga tatbiq etilmoqda. Ayni paytda kambag‘al aholi tarkibida ayollar va kam ta’minlangan oilalardagi yoshlar ulushi yuqoriligi inobatga olinib “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar bilan manzilli ishlash orqali aniq moddiy va ma’naviy ko‘mak berish tizimi tashkil etildi.

“Kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil bu insonning intilishi va o‘z kuchiga tayangan holda aniq maqsad sari harakatda bo‘lishidir” [2]. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlar mamlakatimizda kambag‘allik darajasini asta-sekin kamaytirish imkoniyatini berdi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlardan maqsad aholi turmush darajasini yuksaltirish orqali Kambag‘allik darajasini kamaytirishga erishishdir. Prezidentimiz bu haqda

to‘xtalar ekan: “Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish demakdir” [3] deb ta’kidlab o‘tgandi. Kambag‘allikni kamaytirish uchun, eng avvalo, ta’lim va tarbiyaga e’tibor qaratish aholining keng qatlamlarida olib borilayotgan islohotlar haqida to‘la va to‘g‘ri tushuncha hosil qilish ko‘zlangan maqsadga yetib borish uchun asosiy poydevordir. Shuning uchun prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “birinchi navbatda e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz” [3] deb ta’kidlab o‘tgandi.

Shu maqsadlarda mahallalarda aholini kasb-hunarga o‘qitish uchun o‘quv markazlari tashkil etildi. “Viloyat markazlari va yirik shaharlarda ishsiz aholini va yoshlarni yangi zamon talablariga mos kasb-hunarlarga o‘qitish uchun monomarkazlar tashkil etildi va ushbu markazlarning moddiy-texnik bazasi shakllantirildi” [3].

Kambag‘allikni kamaytirish dasturi doirasida “xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko‘maklashish, ularni tadbirkorlikka jalb qilish, moddiy yordam ko‘rsatish, turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to‘lash, ijtimoiy uylarga joylashtirish va ularning uy-joylarini ta’mirlashga ko‘maklashish, tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratish” [10] zarurligi belgilab olindi. Ishsiz, kam ta’minlangan va ehtiyojmand aholining bandligini ta’minlash maqsadida bandlik va jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘laridan salmoqli resurslar yo‘naltirildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatda olib borilayotgan Kambag‘allikni kamaytirish dasturida belgilangan chora-tadbirlarga to‘xtalib o‘tar ekan, jumladan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Avvalo, aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni boshladik. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi – “Temir daftar” tizimi joriy etildi” [8]. Shu bilan birga, pandemiya sharoitida va undan keyingi tiklanish davrida o‘z ishini yo‘qotgan aholini kambag‘allikka tushib qolmasligi uchun ajratilgan vaqtincha ishsizlik nafaqasi uch barobarga oshirildi. Shuningdek, eski ma’muriy qog‘ozbozlik tartibi bekor qilindi.

Kambag‘allik insoniyatga xos fenomen bo‘lib, bu hodisa dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida turli daraja va ko‘lamda yuzaga keladi. Xususan, Lotin Amerikasi (Braziliya, Urugvay, Venesuela, Kolumbiya) mamlakatlarida aholining 25–30 %i, Karib dengizi mintaqasidagi (Gaiti, Yamayka, Kuba) mamlakatlarda aholining 35–40 %i, Afrikada Sahroi Kabirdan janubda joylashgan (Chad, Kongo, Mali, Somali, Efiopiya, Eritreya) mamlakatlarda kambag‘allik darajasi umumiy aholining 50–60 % igacha qismini qamrab olgan. Bunga sabab sifatida ushbu mamlakatlardagi og‘ir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy beqarorlikni keltirish mumkin. Mazkur mamlakatlarda so‘nggi yillarda kuzatilayotgan og‘ir ekologik vaziyat va harbiy mojarolar ularda ijtimoiy hayotning og‘irlashishiga, aholi turmush darajasining pasayishiga, jamiyatda umumiy qashshoqlashishga sabab bo‘ldi.

Moliyaviy resurs va imkoniyatlarning tor doiradagi aholi qo‘lida konsentratsiyalashuvi aholining qolgan qatlamlari orasida iqtisodiy faollikni susaytiradi va boshqalar uchun, ayniqsa, eng quyi qatlamlarga mansub aholining yashash sharoitini qiyinlashtiradi. Ko‘plab mutaxassislar fikricha, 2017-yilda jahondagi milliarderlarning 762 milliard dollarni tashkil etgan daromadlari o‘ta global qashshoqlikni yetti marta tugatish uchun yetarli bo‘lgan. Tengsizlik va nisbiy kambag‘allikni kamaytirish usullari orasida yuqori daromad oluvchilarga soliq stavkalarini oshirishni o‘z ichiga olgan progressiv soliqlar, fuqarolar sof daromadining ma’lum bir miqdordan baland qismini soliqqa tortishni nazarda tutuvchi, ish beruvchilardan olinadigan soliqlarni tartibga solish orqali kambag‘allikni kamaytirish tadbirlari va dasturlari bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirishi mumkin. Shunga o‘xshash tadbirlar va dasturlar ish beruvchilarga soliqlardan tejab qolingan moliyaviy mablag‘larni o‘z ishchi va xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish imkonini beradi. Kambag‘allikni kamaytirish dasturlari doirasida aholining kambag‘al qatlamlari uchun ijtimoiy sog‘lomlashtirish tizimini joriy etish ham samara berishi mumkin. Masalan, Jahon sog‘likni saqlash tashkiloti ma’muriy xarajatlarni minimallashtirish orqali sog‘liqni saqlashning

umumiy qiymatlarini kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bir qator mamlakatlarda 1970–1980-yillar davomida sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi ta'lim dasturlari va tadbirlari amalga oshirildi. Shunday ta'lim va sog'lomlashtirish dasturlari Shri Lanka, Bangladesh, Hindiston, Nepal va Pokiston kabi Janubiy Osiyoning eng kambag'al mamlakatlarida hayotga tatbiq etildi. Amalga oshirilgan ta'lim va sog'lomlashtirish tadbirlari orqali ushbu mamlakatlarda aholining kambag'al qatlamlari orasida kasallanish darajasi keskin kamaydi. Kambag'allikni kamaytirish dasturlaridan o'rin olgan sog'liqni saqlash tadbirlarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi shundaki, aholining kambag'al qatlami qo'lidagi judayam cheklangan moliyaviy va boshqa resurslar ular uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qildi. Ushbu mamlakatlarda kambag'al aholiga arzon narxlardagi suv filtrlari, qo'l yuvish vositalari va boshqa antiseptik to'plamlarni taqdim etilishi, shuningdek, ulardan foydalanishga o'rgatilib keng targ'ib qilinishi natijasida bu dastur sog'liqni saqlashning eng tejamkor tadbirlardan biri bo'lib, ushbu mamlakatlarda keng tarqalgan diareya va pnevmoniyadan o'lim holatlarini kamaytirishga imkon berdi. Shuningdek, eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini mikroelementlar bilan boyitishni ham Kambag'allikni kamaytirish dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'llaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ham yodlangan osh tuzi va temirga boyitilgan un dasturi orqali mahsulotlar aholiga sotilmoqda, bu esa aholi sog'ligini saqlashda katta ahamiyatga ega. Misol uchun, yodlangan osh tuzini aholining kambag'al qatlami ham bemalol sotib olish imkoniyatiga ega, chunki bu mahsulot arzon narxlarda har bir kishi sotib olishi uchun qulay va hamyonbop mahsulot hisoblanadi. Bunday mahsulotni iste'mol qilish orqali inson organizmida turli endokrinologik kasalliklar rivojlanishining oldini olish mumkin. Agar mamlakatimiz yod tanqis hududda joylashganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu dastur ahamiyati judayam katta ekanligini tushunish mumkin. Aholining kam ta'minlangan va kambag'al qatlami uchun sog'ligini saqlash katta ahamiyat kasb etadi, chunki endokrinologik kasalliklardan davolanish judayam qimmat va uzoq davom etadigan muolajani talab etadi. Bu holat o'z navbatida juda ko'p moliyaviy resurslarni talab etadi. Agar oilada shunday kasallik bilan og'rigan bemor bo'lsa, demak, o'sha oilaning barcha moliyaviy resurslari oilaning kasal a'zosini davolatishga sarflanadi. Kam ta'minlangan aholi, shuningdek, kambag'al oilalar bu holatda qiyin vaziyatga tushib qoladi. Shuning uchun ham aholining keng qatlamlari orasida sog'lom turmush tarzini izchil targ'ib etish orqali kambag'allikni kamaytirishning samarali yo'nalishlarini belgilash mumkin.

## XULOSA

Bugungi kunda turli mamlakatlar tomonidan belgilangan kambag'allik chegaralarida turlicha farqlarni ko'rish mumkin. Rasmiy kambag'allik darajasi odatda uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadidan 50–60% past bo'ladi. Bunda uy xo'jaliklari soni va ushbu uy xo'jaliklarida istiqomat qilayotgan oilalar soni, shuningdek, har bir oiladagi odamlar sonini aniqlash, daromadning jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha miqdorini aniqlash ahamiyatlidir. Shuningdek, bir haqiqatni aniq anglab olishimiz kerakki, kambag'allik muammosi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy-joy berish bilangina bartaraf bo'ladigan hodisa emas. Eng avvalo, kambag'allikni kamaytirish uchun sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, toza ichimlik suvi, energiya ta'minoti va yo'l-transport qurilishi bilan bog'liq keng qamrovli loyihalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

## Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. [Internet manba]. URL: https://e-library.sammu.uz/ (Murojaat etilgan sana: 13.03.2022).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. [Internet manba]. URL: https/:president.uz/oz/lists/view/5774 (Murojaat etilgan sana: 26.01.2021).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. [Internet manba]. URL: https/:president.uz/oz/lists/view/5774 (Murojaat etilgan sana: 24.12.2022).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishida so‘zlagan nutqi. 2020-yil 27-fevral. [Internet manba]. URL https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-kambagallik-darajasi-kambagallikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak (Murojaat etilgan sana: 03.03.2020).

5. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023-yildagi PF-27-son. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/uz (Murojaat etilgan sana: 02.04.2023).

6. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangilangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/ (Murojaat etilgan sana: 25.02.2022).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 2020-yil 23-sentabr. [Internet manba]. URL: https://www.xabar.uz/ (Murojaat etilgan sana:01.10.2020).

8. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi. 2021-yil 22-sentabr. [Internet manba]. URL: https://review.uz/ (Murojaat etilgan sana: 26.09.2021).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-son qarori. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/ (Murojaat etilgan sana: 02.04.2022).

10. Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022-yildagi 145-son qarori. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/docs/-5932671 (Murojaat etilgan sana: 06.06.2022).

11. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.10.2021-yildagi 654-son qarori. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/docs/5688101 (Murojaat etilgan sana: 25.11.2021).

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-62-son qarori. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/ (Murojaat etilgan sana: 02.04.2022).

## ORIGIN, FORMS AND TYPES OF POVERTY

**Zokir E.Suyarov**[1]

*Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies.* 2023. 3(71). 23-32.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

**Keywords:** *poverty, penury, welfare, social reform, poverty level, social state, development strategy, World Bank, Social Protection.*

Uzbekistan conducted in new socio-economic interests are primarily in the center of uslohotlar trying to ensure the priority of most human. “Reform is the ultimate goal of the population in the country wxile yukasaltirish through the principles of social justice and the wellbeing of society is to give saroitini create decent living for everyone” [3]. Our president noted that on February 27, 2020, at a video session of the Cabinet of Ministers on measures to reduce poverty, “a high level of poverty is observed in Samarkand, Surkhandarya, Syrdarya, Andijan regions and the Republic of Karakalpakstan in these regions, a large part of the population has a very low kulik income” [4]. The phenomenon of poverty and the causes of its occurrence have been analyzed by many scientists.

Speaking about the goals of poverty reduction in our republic, our president said: “economic reforms in our country are rapidly continuing. For the first time, we openly declared our determination to reduce poverty. This is achieved by developing entrepreneurship and creating additional jobs, improving the investment and business environment and building modern infrastructure, training people in new professions and providing targeted social assistance to the population”[7], he stressed. In his address to the Parliament on January 24, 2020, the president noted that “poverty reduction means to awaken the entrepreneurial spirit in the population, to fully realize the internal strength and potential of a person, to implement a comprehensive economic and social policy to create new jobs” [1]. Institutional changes are being

implemented in Uzbekistan under the poverty reduction program. ”On measures to organize the activities of deputy governors on issues of entrepreneurship development, employment and poverty reduction in the neighborhood “[9], “PQ-31”of December 3, 2021 and “on measures to organize the activities of the Mahallabay agency for work and entrepreneurship development under the Ministry of economic development, poverty reduction” [9] decisions of the Cabinet of ministers were announced. The main idea of this strategy is strengthening the role of civil society, protection of human rights, poverty reduction, sustainable environmental development towards everyone and provide a guaranteed source of income is to put” [8]. Above all, to reduce poverty, it is necessary to solve complex problems related to health care, vocational training, clean drinking water, energy supply and Road Transport Infrastructure. ”Strengthening the social protection of citizens and reducing poverty has been established as a priority of state policy, providing the population with new jobs and guaranteed sources of protection, qualified medical and educational services, decent living conditions has reached a qualitatively new level” [6].

**References:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar [Appeal of the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Supreme Assembly dated January 24, 2020]. [Online]. URL: https://e-library.sammu.uz/ (Date of Access: 13.03.2022).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr [Address of the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Supreme Assembly December 29, 2020]. [Online]. URL: https://strategy.uz (Date of Access: 26.01.2021).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis, December 20, 2022]. [Online]. URL: https/:president.uz/oz/lists/view/5774 (Date of Access: 24.12.2022).

4. O‘zbekkiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishida so‘zlagan nutqi. 2020-yil 27-fevral [The speech of the President of the Republic of Uzbekistan at the meeting of the Cabinet of Ministers on February 27, 2020]. [Online]. URL: https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-kambagallik-darajasi-kambagallikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak (Date of Access: 03.03.2020).

5. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023-yildagi PF-27-son Farmoni [About the state program for the implementation of the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 in the ‘Year of attention to people and quality education’. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated 28.02.2023 No. PF-27]. [Online]. URL: https://lex.uz/uz (Date of Access: 02.04.2023).

6. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangilangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son Farmoni [About the new development strategy of Uzbekistan for 2022-2026. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated 28.01.2022]. [Online]. URL: https://lex.uz/ (Date of Access: 25.02.2022).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 2020-yil 23-sentabr [Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 75th session of the United Nations General Assembly. September 23, 2020. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 75th session of the United Nations General Assembly. September 23, 2020]. [Online]. URL: https://www.xabar.uz/ (Date of Access: 01.10.2020).

8. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi. 2021-yil 22-sentabr [Speech of the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 76th session of the UN General Assembly. September 22, 2021]. [Online]. URL: https://review.uz/ (Date of Access: 26.09.2021).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-son qarori [‘On measures to organize the activities of mayor’s assistants on the issues of developing entrepreneurship in the neighborhood, ensuring population employment and reducing poverty’. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan, No. 31 dated December 3, 2021]. [Online]. URL: https://lex.uz/ (Date of Access: 02.04.2022).

10. Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022-yildagi 145-son qarori [On mea-

sures to further improve the system of studying and solving women's problems. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, No. 145 dated 31.03.2022] [Online]. URL: https://lex.uz/docs/-5932671 (Date of Access: 06.06.2022)

11. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.10.2021-yildagi 654-son qarori [On measures to further improve the system of social protection of the population. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, No. 654 dated 21.10.2021]. [Online]. URL: https://lex.uz/docs/5688101 (Date of Access: 25.11.2021)

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-62-son qarori ['Economic development and poor on measures to organize the activities of the Agency for the Development of Neighborhood Work and Entrepreneurship under the Ministry of Labor Reduction'. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan, No. 62 dated December 24, 2021]. [Online]. URL: https://lex.uz/ (Date of Access: 02.04.2022).

*Muallif haqida ma'lumot:*

**SUYAROV Zokirjon Ergashevich –** Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: suyarovandu@gmail.com